BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA KADRLAR SALOHIYATINI YANADA MUSTAHKAMLASH

Bobomurod Abduvoxobovich Tillayev
Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Albatta, bu e’tibor zamirida yuksak ma’naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirgan, har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishdek ezgu maqsad mujassam. Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan har qanday chora tadbirlar va islohotlarning samaradorlik ko‘rsatkilarini baholash asosida mavjud kamchiliklarni aniqlash orqali ularni o‘z vaqtida samarali hal etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: boshqaruv, korxona boshqaruvi, kadrlarni boshqarish, kadrlar salohiyatini boshqarish, boshqarish samaradorligi.

O‘zbekiston ham barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda o‘zining qat’iy tarafdor ekanligini bir necha marotaba ma’lum qilgan va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Zero, Barqaror rivojlanish maqsadlari inson hayoti, yashash tarzi va turmush darajasini yaxshilashga qaratilgani bilan ahamiyatli. Shu bois, hukumat tomonidan olingan majburiyatlarni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Xususan, “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Unga asosan 2022 – 2026 yillarda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga samarali erishish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi barqaror rivojlanish maqsadlarida nazarda tutilgan ko‘rsatkichlarning maqsadli va sifatli bajarilishiga imkon bermoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasida olib borilayotgan islohotlar xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan alohida e’tirof etilayotgani diqqatga sazovor. Jumladan, O‘zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi ma’lumot Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 77-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida qabul qilindi va tarqatildi.

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intelektual salohiyatini ro‘èbga chiqarishi hamda ularni XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga taqdim etgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek**, “**biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz”.[1]

Bugun mamlakatimizning tezkor rivojlanish davrida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida yaratilgan innovatsion g‘oya, texnologiya va loyihalar ishlab chiqarilaètgan mahsulotlar turini kengaytirish, sarf-xarajatlarni kamaytirish, texnik jaraènlarni avtomatlashtirishga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda ilm-fanning rolini kuchaytirish, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish, fan bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlash, ilmiy faoliyat va olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni davrning o‘zi talab qilmoqda.

Raqamli texnologiyalar kadrlar boshqaruvida shaffoflik va obyektivlikni kuchaytiradi. Masalan, korxonaga ishga qabul jarayonida sun’iy intellekt rezüme, motivatsiya xati va ish tajribasini tahlil qilib beradi. Algoritmlar xodimning kompetensiyasini lavozim talablariga qanchalik mos bo‘lishini obyektiv ravishda baholaydi. Bunday raqamli yondashuv inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytiradi, nepotizm va subyektiv qarorlar salbiy ta’sirining oldini oladi.[2]

Kadrlar salohiyatini baholash – xodimlarning bilim, ko‘nikma, qobiliyat va ish faoliyati samaradorligini tahlil qilish, rahbar kadrlarni saralab olish va rivojlantirish jarayonidir. Bu tizim orqali kadrlar ehtiyojini prognoz qilish, raqamli texnologiyalar yordamida unumdorlikni oshirish va strategik maqsadlarga erishish ta’minlanadi.

Asosiy yondashuvlar va usullar:

- **Baholash markazlari (Assessment Centers):** Rahbar kadrlarning kompetensiyalarini tizimli baholash va monitoring qilish.
- **Faoliyat samaradorligini tahlil qilish:** Xodimning ish natijalarini maqsadli ko‘rsatkichlar asosida o‘lchash.
- **Raqamli texnologiyalar:** Baholash jarayonini avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirish.
- **Mintaqaviy tahlil:** Kadrlar salohiyatini hududlar kesimida rivojlantirish va takomillashtirish.

Raqamli texnologiyalar asosida kadrlar salohiyatini baholash jarayonining eng muhim jihatlaridan biri – bu inson resurslarini faqat an’anaviy ko‘nikmalar asosida emas, balki raqamli kompetensiyalar, moslashuvchanlik, kreativ fikrlash, tizimli tahlil qilish qobiliyati kabi zamonaviy kompetensiyalar asosida baholash imkoniyatidir.[3] Raqamli texnologiyalar orqali kadrlar salohiyatini rivojlantirishning yana bir ustunligi – bu moslashtirilgan ta’lim konsepsiyasidir. Xodimlarning real ish faoliyatiga qarab ularga sun’iy intellekt asosidagi tizimlar individual o‘quv yo‘nalishlarini taklif etadi. Xodimning qaysi mavzuda qiynalayotgani yoki qaysi yo‘nalishda tez o‘sayotgani tizim tomonidan tahlil qilinadi va unga mos ravishda mikro-o‘quv modullari, video-darslar, simulyatorlar, VR/AR asosidagi ko‘nikma mashqlari taklif etiladi. Bu jarayon korxona uchun ham samarali, xodim uchun ham qulay bo‘lib, vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada tejaydi..

Xulosa. Raqamli texnologiyalar kadrlar salohiyatini baholash va rivojlantirish jarayonida tub burilish yasamoqda. HR-analitika, sun’iy intellekt, raqamli baholash platformalari, onlayn treninglar va avtomatlashtirilgan kompetensiya tizimlari yordamida korxonalar o‘z xodimlarining salohiyatini aniq, shaffof va puxta baholash imkoniga ega bo‘lmoqda. Zamonaviy texnologiyalar nafaqat malakani oshirish, balki korxonaning boshqaruv tizimini optimallashtirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish strategik ahamiyatga ega bo‘lib, kelajak mehnat bozorida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, raqamli platformalar xodimlarning yumshoq ko‘nikmalarini baholashda ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Saidov. A. BMT BARQAROR RIVOJLANISh MAQSADLARIGA ERISHISHDA PARLAMENTNING ROLI (Ilm-fan, ma’rifat va raqamli iqtisodiyot sohasidagi vazifalar talqini misolida)
2. Ochildiyev A. Inson resurslarini boshqarish asoslari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. — 224 b.
3. Xalilova M.N. TA’LIM FIDOYILARI. 11-SON 1-JILD NOYABR 2025 – YIL 1-QISM.